

**XORIJIY INVESTITSİYALARNING MILLIY IQTISODIYOTNI
MODERNIZATSIYA QILISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI**

Tursunov Husniddin Tolliboyevich

TDIU Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Mahmudov Saidahmad Alisher o‘g‘li

TDIU Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Iqtisodiy globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotlarning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalarning nazariy va amaliy jihatlari, ularning davlat iqtisodiyotidagi o‘rni, investitsiya oqimlarini jalb etish mexanizmlari hamda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, taniqli xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari asosida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘sish, sanoat modernizatsiyasi va innovatsion rivojlanishga ta’siri ochib beriladi. Statistika ma’lumotlar tahlili orqali mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning real ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, globallashuv, iqtisodiy o‘sish, investitsion joziba, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik.*

Kirish: Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishi bevosita investitsion faoliyatning samaradorligiga bog‘liq. Ushbu jarayonda kapital harakati, xususan xorijiy investitsiyalar oqimi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Dunyodagi yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishgan mamlakatlarning aksariyati faol investitsiya siyosatini amalga oshirgan va xorijiy kapitalni jalb qilishga alohida e’tibor qaratgan. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy "sakraş" (economic miracle) ga erishgan davlatlar (Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy) muvaffaqiyatining negizida ochiq eshiklar siyosati va xorijiy kapital uchun qulay muhit yotadi.

Xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g‘oyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi va yangi bozorlar bilan integratsiyalashuv imkoniyatini ham taqdim etadi. Professor Jozef Stiglits ta’kidlaganidek: "Xorijiy investitsiyalar nafaqat mablag‘ olib keladi, balki o‘zi bilan birga texnologiya, boshqaruv mahorati va jahon bozorlariga chiqish imkoniyatini ham yetaklab keladi."

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab investitsiya muhitini shakllantirish va xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Investitsiya to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda ko‘rsatilishicha, investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Bu iqtisodiy ta‘rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘laligicha faoliyat ko‘rsatishini aniq tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o‘ziga va investitsiya faoliyatining ob‘ektlariga keng ta‘rif berilgan; ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog‘liqligi ta‘kidlab o‘tilgan. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar esa xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi.⁴⁵

Investitsiyalar – aynan aniq bir belgilangan davrda iste‘mol qilinmagan va kelajakda aniq iste‘mol qilinadigan iqtisodiyotdagi kapital qo‘yilmalarning ko‘payishini ta‘minlashga ko‘maklashuvchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish nazariyasi va makroiqtisodiyotda esa investitsiyalar yangi kapitalni yaratish, shakllantirish hamda mavjudlarini ko‘paytirish jarayoni hisoblanadi. Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati – bu asosiy va aylanma kapitalni korxonani tashkil etish, rekonstruksiya yoki texnik qayta kurollantirishga sarflash; moliyaviy investitsiya bo‘yicha – investorni moliyaviy kapitalini oshirish maqsadida uning instrumentlaridan foydalanib, mablag‘larni aksiya, obligatsiya, bank depozitlariga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga qo‘yishdir. Investitsiya keng ma‘noda yuritilib, bu investitsion jarayondagi hudud, region yoki mamlakatdagi moliyatizimini evolyusion jarayonining hozirgi holati bilan izohlanadi. Investitsiya so‘zi Yevropaning rivojlangan mamlakatlari (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya)da fond bozorlariga ko‘proq e‘tibor qaratilib, investitsiyalash qimmatli qog‘ozlar yordamida amalga oshiriladi degan tushunchalari mavjud. Boshqacha so‘z bilan aytilganda portfel investitsiyasi so‘z bilan yuritiladi.

Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi.

⁴⁵ <https://elib.buxdupi.uz/books/102454.pdf>

Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo‘lmasligi mumkin. Bu birinchi navbatda va qarzlarga taaluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma’lum vaqt o‘tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o‘ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

„Chet el investitsiyalari to‘g‘risida“gi Qonunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma’muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo‘lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko‘rsatib kelayotgan yuridik shaxslar boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;
- chet el davlati fuqarolari bo‘lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari.⁴⁶

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari: Investitsiyalar iqtisodiy nazariyada kelgusida daromad yoki ijtimoiy samara keltiruvchi kapital qo‘yilmalar sifatida talqin qilinadi. Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Mashhur iqtisodchi John Dunning tomonidan ishlab chiqilgan OLI (Ownership, Location, Internalization) paradigmasi xorijiy investitsiyalarning shakllanishini ilmiy asosda izohlaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, investorlar uchta asosiy ustunlikka ega bo‘lgandagina xorijiy bozorga kiradi: mulkiy ustunliklar (texnologiya, brend, tajriba), joylashuv ustunliklari (resurslar, bozor hajmi, infratuzilma) va ichkilashtirish ustunliklari (xarajatlarni kamaytirish, risklarni nazorat qilish).

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud:

- Qo‘shma korxonalar: ulush qo‘shib qatnashishi orqali qo‘shma korxonalarni tashkil etish;
- To‘liq xorijiy korxonalar: 100 % mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo‘lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish;
- Portfel investitsiyalar: Qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya) sotib olish orqali kiritiladigan mablag‘lar.

⁴⁶ LEX.UZ - O‘zbekiston qonunchiligi

▪ Konsessiya va lizing: Tabiiy resurslardan foydalanish yoki uskunalarni uzoq muddatli ijaraga olish kelishuvlari.


▪ Moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.⁴⁷

Xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga keng miqyosda jalb etish o‘tish davrining strategik va joriy vazifalarini hal etish zaruriyati bilan bog‘liq. Ushbu vazifalarni bajarish natijasida o‘tgan yillarda investitsiyalarning o‘sishi jadallashdi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o‘rinni egallashini tasdiqlaydi. SHu bois O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari investitsiya siyosatida to‘liq aks ettirilishini taqozo etadi. uning O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to‘g‘risida", "Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida", "Investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi Qonunlar va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob‘ektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e‘tirof etiladi.

2025-yilda O'zbekistonga investitsiya kiritgan asosiy 4 davlat (mlrd \$)



1-rasm (rasm muallif tomonidan yaratilgan)

⁴⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xorijiy_investitsiya

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur'atlarda o'sishini quyidagi omillar belgilab bermoqda:

- mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi;
- valyuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o'zgarishlar;
- mamlakatning soliq mexanizimini takomillashtirishning aniq yo'nalishlari belgilanganligi;
- soliq qonunchiligida xorijiy investitsiyalarning faoliyatini tartibga soluvchi qaror va qonunlarning ishlab chiqilganligi;
- jahon tovar bozorlaridagi eksportyorlar uchun qulay narx konyukturasining vujudga kelganligi.⁴⁸



2-rasm(rasm muallif tomonidan yaratilgan)

Bugungi kunda O'zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. 2025-yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya kiritgan mamlakatlar soni 50 dan ortdi. Ularning orasida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Saudiya arabistoni kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda.

⁴⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasi_investitsiyalar_va_tashqi_savdo_vazirligi

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni yil sayin jadal sur'atlarda ortib bormoqda: agar 2017-yida 5,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 15,8 mingtani tashkil etdi, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 18,5 mingtaga yetdi. Buning 6,2 mingtasi qo'shma korxonalar, 12,3 mingtasi esa to'liq xorijiy korxonalar hisoblanadi.

2025-yil holatiga ko'ra, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishida tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jami korxonalarning 28,4 foizi sanoat, 26,1 foizi savdo, 9,5 foizi qurilish, 5,3 foizi aloqa va axborotlashtirish, 4,6 foizi qishloq xo'jaligi, 4,2 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 3,2 foizi tashish va saqlash yo'nalishlariga to'g'ri kelsa, qolgan 18,7 foizi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda faoliyat yuritmoqda.

2022-yilgi ma'lumotlar bilan solishtirganda, sanoat sektori birinchi o'ringa chiqqani (27,5% dan 28,4% ga) va savdo ulushi biroz kamaygani (30,5% dan 26,1% ga) iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalar sifati oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish (IT) sohasidagi o'sish mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o'tayotganidan dalolat beradi.⁴⁹

Nega davlat xorijiy investitsiyalarni jalb qilishi kerak? Bu savolga klassik iqtisodchi Robert Solouning o'sish modelida javob berilgan: kapital to'planishi va texnologik taraqqiyot iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishini ta'minlovchi yagona omildir.

- Texnologik yangilanish: Eskirgan uskunalardan voz kechib, energiya tejamkor texnologiyalarga o'tish.

- Eksport salohiyati: Jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish.

- Ijtimoiy samaradorlik: Yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi daromadlarining oshishi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar — bu mamlakat iqtisodiyotining "qon aylanish tizimi"dir. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, OTB, YTTRB) bilan hamkorligi mamlakatimizning iqtisodiy suverenitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, xorijiy sarmoya — bu eng avvalo aholi bandligi va ijtimoiy muammolarni yechishning kalitidir. O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini

⁴⁹ <https://daryo.uz/2025/01/01/ozbekistonga-kiritlayotgan-xorijiy-investitsiyalar-hajmi-tahlil-qilindi?>

ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda, jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas.

Bu borada so'z ketganda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlashimiz lozim: "Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, nechog'lik katta hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga hojat yo'q. Bu avvalombor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir - oqibatda respublikamiz hududlari, shahar va tumanlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish demakdir".⁵⁰

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. 2024-yil yakunlari va 2025-yil 1-chorak istiqbollari bo'yicha hisoboti.
2. Stiglitz, J. E. Globalization and Its Discontents Revisited: Anti-globalization in the Era of Trump. W. W. Norton & Company, 2017.
3. Solow, R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, Vol. 70, No. 1, 1956. (Klassik nazariy asos).
4. Dunning, J. H. (2000). The eclectic paradigm as an envelope for economic and business theories of MNE activity. International Business Review, 9(2), 163–190.
5. Krugman, P. (1995). Development, geography, and economic theory. MIT Press.
6. Sachs, J. (2005). The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. Penguin Books.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi PQ-5006 sonli Qarori. Investitsiyalarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralari.
8. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2021). Chet el investitsiyalari to'g'risida.
9. Karimov, I. A. (2017). O'zbekistonni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha nutqlar to'plami. Toshkent: O'zbekiston Matbuoti.
10. <https://elib.buxdupi.uz/books/102454.pdf>
11. LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xorijiy_investitsiya

⁵⁰ <https://elib.buxdupi.uz/books/102454.pdf>

13. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasi_investitsiyalar_va_tashqi_savdo_vazirligi
14. [https://daryo.uz/2023/02/08/ozbekistonga-kiritlayotgan-xorijiy investitsiyalar-hajmi-tahlil qilindi?ysclid=lh7y5lypyt239667210#:~:text=Shu%20bilan%20birga,sohalarda%20faoliyat%20yuritmoqda.](https://daryo.uz/2023/02/08/ozbekistonga-kiritlayotgan-xorijiy_investitsiyalar-hajmi-tahlil_qilindi?ysclid=lh7y5lypyt239667210#:~:text=Shu%20bilan%20birga,sohalarda%20faoliyat%20yuritmoqda.)
15. <https://elib.buxdupi.uz/books/102454.pdf>